

“МАHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALAR LARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“ALEM-IN NISVAN” – ILK AYOLLAR JURNALI VA UNING JADID MATBUOTIDAGI O’RNI

Mahzuna Kamalova
O’zJOKU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola XX asrning boshlarida jadid matbuotida chop etilgan birinchi ayollar jurnali "Alem-i Nisvan"(Ayollar dunyosi) faoliyatiga bag'ishlangan. Unda asosan jurnal tashkil qilinishining o'sha davr uchun zarurati, jamiyatda xotin-qizlar huquqlari bilan bog'liq muammolar, xususan, ta'lim olish, hunar o'rganish, jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotida ishtirok etish orqali ularning mavqeini oshirish masalalari tadqiqiga bag'ishlangan.

Maqolada “Alem-i Nisvan” jurnalining ta’sis etilishi, ilk sonlari, muharrirlari, nashrning o’sha davrdagi o’rni va ahamiyati haqida izlanishlar olib borildi. Jadidlar harakati y’o’lboshchisi Ismoil Gaspirali va uning qizi “Alem-i Nisvan” jurnalining ilk muharriri Shafiqqa Gaspirali faoliyati haqida to’xtalib o’tilgan. Shunigdek, jurnal sahifalaridan o’rin olgan ayrim mavzular tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: “Alem-i Nisvan” jurnali, jadid matbuoti, Ismoil Gaspirali, Shafiqqa Gaspirali, “Tarjimon” gazetasi.

Аннотация: «Алем-и Нисван» («Женский мир») — первый женский журнал в современной прессе. В начале 20 века это издание, направленное прежде всего на решение женских проблем и повышение их статуса в обществе, посвящено вопросам образования женщин, их участия в социокультурной жизни и экономико-политических процессах.

В статье проведено исследование о процессах создания журнала «Алем-и Нисван», его первом выпуске, редакторах, первоначальной программе и значении издания. Были проанализированы некоторые темы с его страниц. Путем анализа были обсуждены взгляды Исмаила Гаспирала, известного своей идеей «Единства в языке, мысли и работе», а также творчество его дочери Шафики Гаспирала. В джадидской прессе появился журнал «Алем-и Нисван», издаваемый под редакцией ведущего представителя джадидов Шафики Гаспирала и ее дочери.

Ключевые слова: Журнал «Алем-и Нисван», джадидская пресса, Исмаил Гаспирали, Шафика Гаспирала, газета «Тарджумон».

Abstract. "Alem-i Nisvan" (Women's World) is the first women's magazine in Jadid press. At the beginning of the 20th century, this publication aimed primarily at solving women's problems and raising their status in society, is devoted to the issues of women's education, their participation in socio-cultural life and economic-political processes.

In the article, research was conducted about the processes of establishment of "Alem-i Nisvan" magazine, its first edition, editors, initial program and the importance of the publication. Some topics from its pages were analyzed. Through analysis, the views of Ismail Gaspirali, who is known for the idea of "Unity in language, thought and work" and the work of his daughter Shafiqqa Gaspirali, were discussed. "Alem-i Nisvan" magazine, published under the editorship of Shafiqqa Gaspirali, the leading representative of the Jadids and her daughter, has been revealed in the Jadid press.

Key words: "Alem-i Nisvan", Jadid press, Ismail Gaspirali, Shefika Gaspirali, "Tarjimon" newspaper.

Kirish

XIX asr oxirida ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida vujudga kelgan jadidchilik harakati boshqa ijtimoiy muammolar qatorida ayollar muammolarini hal etish,

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

jamiyatda ularning mavqeini oshirishni maqsad qilgan. Jadidlar xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeini oshirish jamiyatning moddiy va ma’naviy rivojlanishi asosi deb hisoblaganlar. Jadidchilik harakatining yo’lboshchisi Ismoil Gaspirali(1851-1914) birinchilardan bo’lib xotin-qizlar ta’limi tashabbusi bilan chiqqan. Ismoil Gaspirali o’zi asos solgan “Tarjimon” gazetasida ayollar huquqlari mavzusida muntazam maqolalar yozgan va ayollar uchun “Alem-i Nisvan” (Ayollar dunyosi) jurnali faoliyatini yo’lga qo’ydi. Bu nashrga qizi, ham izdoshi Shafiqqa Gaspirali (1886-1975) ni muharrir etib tayinlaydi. Gaspirali bu bilan jadidchilik harakatida ayollarning ishtirokini yo’lga qo’ygan. Gaspiralining fikricha, jamiyat me’morlari ayollardir, agar ayollar johil bo’lib qolsa, millat ham johil bo’lib qoladi. U o’zining 1903 yilda nashr etilgan “Ayollar” sarlavhali maqolasida ayollarning ijtimoiy qadriyatlari va ularning ahamiyati haqida shunday yozadi:¹

“Bundan buyon inson dunyosining yarmi ayollar bo’lsa-da, ro’zg’or, rohat va baxt nuqtai nazaridan ayolning naqadar muhimligi tushuniladi. Agar ayollar yomon deb hukm qilinsa, dunyoning yarmi yomon deb hukm qilinadi. Agar ayollar yosh deb hukm qilinsa, dunyoning yarmi qari deb hukm qilinadi. Agar biror shahar, viloyat, jamaa yoki millatning ayollari johil bo’lsa, jamiyat va ummatning aksariyati johil bo’lishi kerak.”²

Gaspirali xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeini oshirish, erkak va ayol tengligini ta’minlash haqidagi g’oyalarni amalga oshirishni o’zining oilasi va yaqinlardan boshlaydi. Uning xotin-qizlarning ta’lim olishi va erkaklar bilan teng huquqqa ega bo’lishi haqidagi ma’rifiy va ilg’or qarashlarining aksini, avvalo, qizi Shafiqqa Xonim bilan bo’lgan ota-qiz munosabatlarida, uni tarbiyalash tarzida ko’rish mumkin.

Shafiqqa Gaspirali

Ismoli Gaspiralining qizi Shafiqqa Gaspirali 1886 yil 21 noyabrda Bog’chasaroy shahrida tug’ilgan. Onasi qozonlik Akchuralar oilasidan Isfandiyorbekning qizi Zuhra Xonim turmush o’rtog’ining hammaslagi va qizining birinchi tarbiyachisi bo’lgan. Oilaning to’ng’ich qizi Shafiqqa Gaspirali maktabga borishdan avval o’qish va yozishni o’rgangan.

Uning iqtidorini ko’rgan otasi Ismoil Gaspirali yangi ta’lim usuli uchun tayyorlagan “Hoja-i Shibyon” kitobini qizi Shafiqaga bergen. U 5-6 yoshida otasidan harf o’rganganidan so’ng, ammasi Pembe Xonimning Qrimdag’i birinchi Usul-i Jadid mакtabida o’qiydi. Rus tilini xususiy o’qituvchilardan o’rganadi. Ismoil Gaspirali qizi

¹ Gaspirali, İ. (2019). Kadınlar. Y. Akpinar (Yay. haz.), *Ismail Gaspirali Seçilmiş Eserleri: II*. İstanbul: Ötüken Neşriyat. 321-s.

² Gaspirali, İ. (2019). Kadınlar. Y. Akpinar (Yay. haz.), *Ismail Gaspirali Seçilmiş Eserleri: II*. İstanbul: Ötüken Neşriyat. 323-s.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Shafiqani o’ziga yordamchi sifatida tarbiyalaydi. Barcha uchrashuvlariga o’zi bilan birga olib boradi, asarlarini, maqolalarini tahrir qildiradi. Shafiq Gaspirali “Tarjimon” gazetasining nashr etilish jarayonlari, ruscha tarjimalaridan tortib pochta va tarqatish ishlarigacha bo’lgan har bir bosqichida ishtirok etadi. Otasining taklifi va yordami bilan maqolalar yoza boshlaydi va ilk maqolasi 1903-yilda “Tarjimon”da chop etiladi. Shafiq shu birinchi maqolasidayoq ayollar masalasiga to’xtalgan. Keyingi maqolalarida boshqa ijtimoiy muammolarga ham to’xtaladi. Masalan, u bir maqolasida tatarlarning qoloqligi va buning sababi haqida yozadi. Shuningdek, tatar xalq og’zaki ijdiga oid qrim-tatar ertaklari, hikoyalari, maqollari, xurofotlari va shunga o’xshash mavzularda ham maqolalar yozadi va chop etadi.³

Ismoil Gaspirali qizi Shafiqani “Alem-i Nisvan” jurnalining rahbari etib tayinlashining birinchi sababi, o’zi avval yozgan “Arslon qiz” hikoyasi qahranmoni Guljamolga qiyoslaganidir. Ismoil Gaspirali tomonidan yozilgan ushbu hikoyada Shayx Izzat otaning qizi Guljamol obrazi o’zi mustaqil oyoqqa tura oladigan, ijtimoiy jihatdan kuchli bo’lgan ibratli ayol sifatida tasvirlangan. U qizi Shafiqani bu qahramonning hayotiy qiyosi sifatida ko’radi.⁴

Shafiq Gaspirali “Alem-i Nisvan”da turk va islom olamidagi ayollarning ahvolini tushuntirish bilan birga ayollarni jamiyatda faol bo’lishiga yordam berdi. U Rossiyadagi turkiy ayollar harakatining yetakchisi, Ozarbayjonning bosh vaziri Nesip Yusufbeylining rafiqasi bo’lgan. Shuningdek, Qrim respublikasida Kongress raisligi a’zosi, ikki muddat parlament deputati, bog’cha tarbiyachisi sifatida ham faoliyat yuritgan.

Shafiq Gaspirali tomonidan Bog’chasaroyda nashr etilgan “Alem-i Nisvan” (“Ayollar dunyosi”)dan tashqari 1913-1917 yillarda Qozonda chiqqan “Suyum Bike” kabi jurnallar o’sha davr xotin-qizlarining yangi ovozi o’laroq paydo bo’lgan. Bu jurnallar faoliyatidan ko’rish mumkinki, jadidlar xotin-qizlar masalasiga alohida e’tibor berib, dunyoviy ishlarni bajarishda xotin-qizlar ham erkaklar qatorida teng ekanliklarini isbotlay olganlar.

“Alem-i Nisvan” jurnalining ta’sis jarayonlari va dasturi

“Alem-i Nisvan” jurnali 1905 yilning oxirida Ismoil Gaspirali asos solgan “Tarjumon” gazetasiga ilova sifatida nashr etila boshlaydi. Jurnal muharriri etib

³Meral Demiryurek. Müslüman Türk Kadın Dergileri ve ‘Kadın Meselesi’ne Osmanlı ve Rus Emperyal Bakışları: Alem-i Nisvan, Kadınlar Alemi, Kadın. Modern Türkük Araştırmaları Dergisi İsmail Bey Gaspirali Özel Sayısı Cilt 11, Sayı 4 (Aralık 2014), 186-209 s.

⁴ Doğan, Hilal (2020). Alem-i Nisvan Gazetesi (1905-1907), Ankara Yıldırım Beyazıt Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatı Ana Bilim Dalı Yüksek Lisans Tezi.103-106 s.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALAR LARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

maktabni endigina tamomlagan Shafiqa Gaspirali tayinlangan bo’lsada, unga Ismoil Gaspiralining o’zi bosh-qosh bo’ldi. Jurnalning chop etilishi rejalashtirilayotgani haqida birinchi marta “Tarjimon” gazetasining 1905 yil 13 yanvar sonida xabar berildi. 1905 yil 11 iyulda Ismoil Gaspirali ichki ishlar vazirligiga tatar tilida haftalik “Alem-i Nisvan” (Ayollar dunyosi) nomli jurnal chiqarish uchun ariza bilan murojaat qiladi. Uzoq davom etgan sa’y-harakatlar natijasida 1905 yil 3 noyabrda nashr etilishiga ruxsat olindi. Shungdek, “Tarjimon” gazetasida “Alem-i Nisvan” jurnalining rus tilida “Jenskiy mir” nomi bilan nashr etilishi o’quvchilarga e’lon qilingan edi.

Jurnalning 1906 yil 37-son muqovasi logotipi yonida "Xonimlar dunyosi" iborasi paydo bo’lganligi uning ayollarga tegishli nashr ekanligidan darak beradi. U nafaqat Qrim tatarlari, balki butun Rossiya turklari tarixidagi birinchi ayollar jurnalni hisoblangan. Jurnal mazmuni jurnal nomi ostida: “Bu turkiy haftalik rasmi jurnal bo’lib, unda adabiyot, sog’liqni saqlash ilmi, ta’lim va oilani boshqarish haqida so’z boradi”. “Yillik to’lov olti oy uchun uch rubl, to’rt oy uchun ellik kopeek va to’rt oy uchun bir rubl. Nusxasi olti kopeek /Bog’chasaroy shahri/ Muharrir va noshir Ismoil Gaspirali; Mudira Shafiqa Yusufbekovning zavjasasi” deb yozilgan edi.

“Alem-i Nisvan” jurnalida “Tarjimon”ning nashr tamoyillariga parallel nashr siyosati amalga oshirilgan. Jurnalda milliy o’zlikni asrash, milliy birlik va hamjihatlik g’oyasi maqolalarning bosh mavzusi bo’lgan. Bu g’oyalarni bevosa “Alem-i Nisvan”da jurnaliga ham tegishlidir.

“Alem-i Nisvan” jurnalining dasturi quyidagicha:
(“Alem-i Nisvan”)

Bu ayollar uchun haftalik adabiy va ilmiy jurnal. Kelgusi yil boshida nashr etishni maqsad qilgan ushbu jurnalning dasturi quyidagi qismlardan iborat:

- 1) Ayollarga xos davlat qoidalari va diniy qonunlar.
- 2) Uy xo’jaligini boshqarish, bolalar ta’limi va qishloq tibbiyoti haqida ma’lumot va yangiliklar.
- 3) Kerakli rasm va shakllar bilan uy-ro’zg’or ishlari (tikuv, kashta tikish va boshqalar).
- 4) Yurtimizda va boshqa xalqlarda ayollarning ahvoli, turmushi fan va adabiyotda. Davlat ishlari va siyosatda mashhur xonimlarning tarjimalari va rasmlari.
- 5) Mukaddimat-i funun, axloqiy tamoyillar, hikoyatlar, she’rlar, tarix va sayohatlar, kerakli suratlar bilan (Alem-i Nisvan.1905. Namuna soni).⁵

⁵ Doğan, Hilal (2020). Alem-i Nisvan Gazetesi (1905-1907), Ankara Yıldırım Beyazıt Üniversitesi Sosyal bilimler Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatı Ana Bilim Dalı Yüksek Lisans Tezi.105 - s.

“МАHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Shunday qilib, “Alem-i Nisvan”ning mustaqil birinchi soni 1906-yil yanvar oyida tatar tilida nashr etiladi. Uning sahifalarida ayollar duch keladigan ta’lim muammolari yoritiladi va bu borada tashlangan ijobiy qadamlar haqida muntazam xabarlar berib boriladi. Jurnal xotin-qizlar uyushmalari faoliyatiga ham keng o’rin beradi. Tbilisida nashr etilgan va ayollar huquqlariga katta ahamiyat bergen “Mulla Nasriddin” jurnalidagi ayrim maqolalar “Alem-i Nisvan”da ham bosildi. Shuningdek, jurnal orqali kambag’allarga yordam yig’iladi: qizlar maktablariga o’qituvchilar talab qilinadi. Bundan tashqari, jurnalda turli mamlakatlardagi ayollarning turmush tarzi, mashhur ayollarning tarjimai holi va portretlari, ilmiy kashfiyotlar va ixtiolar, yangiliklar va reklamalar joy olgan.⁶

“Alem-i Nisvan” jurnali bir yil davomida 1906 yil 24 mart - 29 dekabr oralig’ida, 1907 yil 30 yanvar - 30 mart oralig’ida chop etiladi va undan keyin to’xtatiladi. Buning sababi jurnal xarajatlarini qoplay olmaganligidir.⁷ Jurnal “1910 yildan yana “Tarjimon”ga bepul qo’shimcha sifatida oyda ikki marta qayta nashr etila boshlaydi.

“Alem-i Nisvan” jurnalida xotin-qizlar masalalarining yoritilishi

“Alem-i Nisvan” ayollar jurnali jadidchilik harakatining ma’rifiy faoliyatini davom ettirgan holda, eng avvalo, ayollar muammolarini yoritishga bag’ishlanganligi bilan ahamiyatli. Jurnalning deyarli har bir sahifasida, muqovasidan tortib, oxirgi sahifasigacha, ayollar mavzusini aks ettiradi. Xotin-qizlar bilan bog’liq eng ko’p yoritilgan muammo bu ta’lim masalasi ekanligini kuzatdik. Bu mavzuda ijobiy harakatlar aks engan xabarlar ham yoq emas. Masalan, maktablarga yuborish orqali qizlarning dunyovuy bilimlardan xabardor bo’layotgani quvonchli holat ekani qalamga olingan. Hatto, maktabni tamomlagan (20 ga yaqin) qizlar so’nggi 15-20 yil ichida hukumat tomonidan oliy o’quv yurtlarida tibbiyot va doyalik diplomini oлганliklari haqida xabar beriladi.⁸ Ismoil Gaspiralining o’zi bir qizning Sorbonna Dorulfununida huquq va falsafa yo’nalishida tahsil oлganidan g’ururlanganini o’z o’quvchilari bilan baham ko’radi. Bundan tashqari, ayollarning kasb-hunarga ega bo’lishi, ularning ijtimoiy va siyosiy mavqeい, islom dinining ayollar kamolotidagi o’rni, g’arblashuvning mahalliy xotin-qizlari hayotiga ta’siri kabi mavzular ham o’rin olgan. Jurnalda o’sha davrda huquq va erkinliklari cheklangan, ta’lim va tarbiyadan mahrum sharq ayollarini hayoti va turmush tarzi tasvirlangan. “Alem-i Nisvan”, turkiy musulmon ayollarining

⁶ Doğan, Hilal (2020). Alem-i Nisvan Gazetesi (1905-1907), Ankara Yıldırım Beyazıt Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatı Ana Bilim Dalı Yüksek Lisans Tezi.104- s.

⁷ Kirimli, Hakan. Gaspirali, Isamil Bey <https://islamansiklopedisi.org.tr/gaspirali-ismail-bey>

⁸ Абидуллаева Э.Э. Причины, повлиявшие на закрытие журнала "Алем-и Нисван" ("Женский мир") (к 170-летию со дня рождения Исмаила Гаспринского). Текст научной статьи по специальности. «История и археология». <https://cyberleninka.ru/article/n/prichiny-povliyavshie-na-zakrytie-zhurnala-alem-i-nisvan-zhenskiy-mir-k-170-letiyu-sodnya-rozhdeniya-ismaila-gasprinskogo/viewer>.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ba’zi jihatlari Yevropa ayollaridan farqli o’rinda ekanligini ochiqlagan. Mayjud muammolarni islom dini doirasida hal qilish mumkin degan fikrni himoya qilgan.

“Ba’zi islomiy qizlar Yevropa tillarini ham o’rganishlari kerak. Lekin bu faqat tarjima uchun, qolganlarimiz o‘z ona tilimizda o‘qishimiz, o‘z millatimiz doirasida go’zal odob va tarbiya olishimiz, o‘z tilimizda ilm-fanni o’rganishimiz kerak. Shubha yo’qli, faqat shu ishni qilsak, omadimiz keladi. Millatini yo’qotganlar baxtsiz bo’lishiga shubha yo’q. Dekart, Gyote, Nyuton va Pushkinni o‘qib hayratga tushib, Sa’diy, Hofiz, Umar Hayyom, Fitrat haqida bilmasa, bunday xonimlarning millatidan nima kutish mumkin?(Alem -i Nisvan, No .62:3).⁹

Shuningdek, “Alem-i Nisvan”da milliy til masalasiga ham alohida e’tibor qaratilib, ona tilidan ko’proq foydalanishga da’vat etilad. Jumladan, “Kavkazda musulmon ayollar” sarlavhali maqolada o‘qimishli, ammo o‘z tilini bilmaydigan, Kavkaz ayollari tanqid ostiga olinadi. Unda quyidagi satrlarni o‘qish mumkin:

“... Ma’rifatli odamlarimiz orasida rus tilini biladigan, ammo, o‘z tilida yozish yoki o‘qish u yoqda tursin, so‘zlashni ham bilmaydiganlar bor. Iismlari ham butun ajnabiylar ismlari kabi.... Ulardan bir qanchasini bilaman, muallimadirlar, ammo turkiychni bilmaslar, musulmonlar, ammo musulmonlikni bilmaslar. Bilishni ham istamaydilar. Ular o’zaro rus tilida suhbatlashadilar, Turkiy tilga bo’lgan talabni kuchaytirishni xohlamaydilar, agar xohlasalar, bilardilar, o’rgangan bo’lardilar. Hech narsa xohish qo’lidan qutilmas.... Inson xohlagan narsasiga erisha oladi.”(“Alem-i Nisvan” 1906 No4, 49-50).¹⁰

“Alem-i Nisvan”da boshqa mamlakatlardan xotin-qizlar hayoti haqida xabarlar berib boriladi. Ammo asosiy urg’u, asosiy e’tibor turkiy muslima ayollarning ta’lim va tarbiya jihatidan boshqa hamjinslaridan ustunligiga qaratiladi. Shuningdek, maqolalar mazmuhidan boshqa mamlakatlarda davlat xizmatchisi, bank boshqaruvchisi kabi turli ishlarda ishlayotgan ayollardan misollar keltirish orqali qizlarni kasb egasi bo’lishga da’vat etilganini anglash qiyin emas. U qizlar tarbiyasini millat ma’rifatining ajralmas qismi deb biladi va “Qizlar haqida” sarlavhali maqolasida o‘z fikrini ifodalaydi: “Bir millatni zulm, jaholat va undan keladigan falokatdan qutqarmoq uchun eng quvvatli

⁹ Meral Demiryurek. Müslüman Türk Kadın Dergileri ve ‘Kadın Meselesi’ne Osmanlı ve Rus Emperyal Bakışları: Âlem-i Nisvan, Kadınlar Alemi, Kadın. Modern Türklük Araştırmaları Dergisi İsmail Bey Gaspiralı Özel Sayısı Cilt 11, Sayı 4 (Aralık 2014),. 199 - s.

¹⁰Meral Demiryurek. Müslüman Türk Kadın Dergileri ve ‘Kadın Meselesi’ne Osmanlı ve Rus Emperyal Bakışları: Âlem-i Nisvan, Kadınlar Alemi, Kadın. Modern Türklük Araştırmaları Dergisi İsmail Bey Gaspiralı Özel Sayısı Cilt 11, Sayı 4 (Aralık 2014),. 197 - s.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

vosita qizlarni o’qitib ko’zlarini ochish va qalblarini nurlantirishdir!”(Alem-i Nisvan, No 36: 3).¹¹

“Alem-i Nisvan”da maqolalardan tashqari jurnal o’quvchilarining turli mazmundagi xatlari ham o’rin olgan. Shuningdek, “Siyosat va ayol” rukndagi maqolalarda ayollarning siyosiy mavqeい haqida so’z boradi. Jadidlarning ijtimoiyi-siyosiy, madaniy-ma’rifiy qarashlarida ayollar jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ta’riflanadi.

“Alem-i Nisvan” jurnalining mazmuni umumiy jihatdan jadid matbuotiga xos bo’lib, xotin-qizlar o’qimishli, sog’liqni saqlash va bolalar tarbiyasidan xabardor bo’lishlari; oilada ayollarning o’rnini belgilsh orqali ularning jamiyatdagi mavqeini oshirish; dunyoviy ishlarni bajarishda xotin-qizlar ham erkaklar qatorida teng bo’lishlari kerakligi haqidagi mavzularni qamrab oladi.

Xulosa

Turkiy va islom olamida nashr etilgan birinchi ayollar jurnali - “Alem-i Nisvan” islohotchi sifatida vujudga kelgan jadidchilik harakati g’oyalarini targ’ib etganligi, eng avvalo, ayollar masalalariga bag’ishlanganligi bilan ahamiyatli. Barcha sohalarda islohotlar harakati sifatida maydonga kelgan jadidchilik faoliyati ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlarda xotin-qizlarning faol ishtirokini ta’minlash uchun ma’rifiy va amaliy jihatdan kurash olib borganlar. Bu kurash doirasida jadidlar rahnamosi Ismoil Gaspirali sa’y-harakatlari va xotin-qizlarni muhim ijtimoiy-ma’naviy kuchga ega ekanligini qabul qilish va da’vat etishga qaratilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Jurnal chiqarish orqali xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqqa ega ekanligini amaliy jihatdan isbotlaydi.

1. Takidlash joizki, “Alem-i Nisvan” jurnali haqida hali shu paytgacha o’zbek tilida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan. Ushbu maqola bu borada birinchi va kichik qadam bo’ladi, bizningcha. Izlanishlar jarayonida shunga amin bo’ldikki, jurnalda aks etgan xotin-qizlar masalalariga oid mavzular oradan bir asr o’tgan bo’lsada hamon dolzarbligini yo’qotmagan. Yangi O’zbekistonda olib borilayotgan yangi islohotlarda gender tenglik, ayollar ta’limi, kasb-hunar egallashi, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy mavqeini oshirish muhimdir. Shu nuqtai nazardan mavzu doirasida jadid opa-singillarimizdan o’rganadigan tajribalar borligi bizning ushbu mavzuga qo’l urishimizga asos bo’la oladi, degan umiddamiz.

¹¹ Meral Demiryurek. Müslüman Türk Kadın Dergileri ve ‘Kadın Meselesi’ne Osmanlı ve Rus Emperyal Bakışları: Âlem-i Nisvan, Kadınlar Alemi, Kadın. Modern Türklük Araştırmaları Dergisi İsmail Bey Gaspirali Özel Sayısı Cilt 11, Sayı 4 (Aralık 2014), 197 - s.

**“МАHMUDХО‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID
MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Doğan, Hilal (2020). Alem-i Nisvan Gazetesi (1905-1907), Ankara Yıldırım Beyazıt Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatı Ana Bilim Dalı Yüksek Lisans Tezi.
2. Nazarov. A.A. Turkiston maktablarining tashkil etilishida jadidchilik harakati, xotin-qizlar ta'limi ahamiyati. Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2022.№ 6, 225-bet.
3. Косенко, Юрий. «Алем-и Нисван» - первый женский тюрко-мусульманский журнал в мире. <https://islam.in.ua/ru/istoriya/alem-i-nisvan-pervyy-zhenskiy-tyurko-musulmanskiy-zhurnal-v-mire>.
4. Абубулаева Э.Э. Причины, повлиявшие на закрытие журнала "Алем-и Нисван" ("Женский мир") (к 170-летию со дня рождения Исмаила Гаспринского). Текст научной статьи по специальности. «История и археология». <https://cyberleninka.ru/article/n/prichiny-povliyavshie-na-zakrytie-zhurnala-alem-i-nisvan-zhenskiy-mir-k-170-letiyu-so-dnya-rozhdeniya-ismaila-gasprinskogo/viewer>.
5. Kirimli, Hakan. Gaspirali, Isamil Bey <https://islamansiklopedisi.org.tr/gaspirali-ismail-bey>
6. Gaspiralı, İ. (2019). Kadınlar. Y. Akpınar (Yay. haz.), İsmail Gaspiralı Seçilmiş Eseleri: II . İstanbul: Ötüken Neşriyat. 321-s.
7. Demiryurek, Meral. Müslüman Türk Kadın Dergileri ve ‘Kadın Meselesi’ne Osmanlı ve Rus Emperyal Bakışları: Âlem-i Nisvan, Kadınlar Alemi, Kadın. Modern Türkük Araştırmaları Dergisi İsmail Bey Gaspiralı Özel Sayısı Cilt 11, Sayı 4 (Aralık 2014).